

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA MUSIQIY-PEDAGOGIK IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINING ROLI

Qobilova E

Qo'qon davlat universiteti professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarda musiqiy-pedagogik identitetni rivojlantirishda o'zbek xalq qo'shiqlarining o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda xalq qo'shiqlarining estetik, ma'naviy va pedagogik imkoniyatlari asosida kasbiy o'zlikni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan. Natijalar xalq qo'shiqlari asosidagi ta'lim modeli yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Musiqiy-pedagogik identitet, xalq qo'shiqlari, musiqa pedagogikasi, milliy musiqa, estetik tafakkur, pedagogik kompetensiya, ijodiy yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль узбекских народных песен в развитии музыкально-педагогической идентичности будущих учителей музыки с теоретической и практической точек зрения. В исследовании раскрываются механизмы формирования профессиональной идентичности на основе эстетических, духовных и педагогических возможностей народных песен. Обосновано, что народные песни способствуют развитию национального самосознания, художественного мышления и профессиональной мотивации студентов. Также показаны пути интеграции народных песен в образовательный процесс. Результаты исследования подтверждают высокую эффективность использования народных песен в формировании музыкально-педагогической идентичности будущих учителей музыки.

Ключевые слова: Музыкально-педагогическая идентичность, народные песни, музыкальная педагогика, национальная музыка, эстетическое воспитание, музыкальное мышление, педагогическая компетентность, творческий подход, традиционная музыка, фольклор.

Abstract: This article examines the role of Uzbek folk songs in the development of musical-pedagogical identity of future music teachers from both theoretical and practical perspectives. The study reveals mechanisms for shaping professional identity based on the aesthetic, spiritual, and pedagogical potential of folk songs. It is substantiated that folk songs contribute to the development of national identity, artistic thinking, and professional motivation among students. The paper also outlines methods for integrating folk songs into the educational process. The results confirm the high effectiveness of using folk songs in the formation of musical-pedagogical identity of future music teachers.



Keywords: *Musical-pedagogical identity, folk songs, music pedagogy, national music, aesthetic education, musical thinking, pedagogical competence, creative approach, traditional music, folklore.*

KIRISH

O'zbek xalq qo'shiqlari tarbiyaviyligi bilan alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda musiqa fani darsliklarida o'zbek xalq qo'shiqlariga alohida o'rin ajratilgan sababi milliy identitetni o'quvchilar tushunishi va anglashi uchun. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy-pedagogik identitetini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Musiqiy-pedagogik identitet o'qituvchining o'z kasbiga nisbatan ongli munosabati, musiqiy tafakkuri, estetik qarashlari va pedagogik faoliyatga tayyorgarligi bilan belgilanadi. O'zbek xalq qo'shiqlari milliy musiqiy merosning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va estetik qarashlari ifodalanadi. Shu bois, xalq qo'shiqlari musiqa ta'limida nafaqat o'quv material, balki shaxsni tarbiyalovchi pedagogik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - o'zbek xalq qo'shiqlari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarda musiqiy-pedagogik identitetni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash va ularning samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat.

II. METODOLOGIYA

Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil metodi: orqali o'zbek xalq qo'shiqlari, musiqa pedagogikasi va kasbiy identitetga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Bu jarayonda xalq qo'shiqlarining estetik va tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilindi.

Pedagogik kuzatuv metodi: yordamida talabalar faoliyati, ularning xalq qo'shiqlarini o'zlashtirish jarayoni, ijro va tahlil qilish ko'nikmalari o'rganildi.

Tajriba-sinov ishlari: davomida eksperimental va nazorat guruhlarini tashkil etilib, xalq qo'shiqlariga asoslangan darslar joriy etildi.

So'rovnoma va diagnostik metodlar: orqali talabalar kasbiy identitet darajasi, motivatsiyasi va estetik qarashlari aniqlashtirildi.

III. NATIJALAR

Tadqiqot natijalari o'zbek xalq qo'shiqlariga asoslangan ta'lim modeli bo'lajak musiqa o'qituvchilarning musiqiy-pedagogik identitetini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Eksperimental guruhda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- yuqori identitet darajasi 20% dan 68% gacha oshdi
- o'rtacha daraja 50% dan 27% ga kamaydi
- past daraja 15% dan 5% gacha tushdi

Shuningdek:



- musiqiy-estetik tafakkur rivojlandi
- pedagogik motivatsiya kuchaydi
- milliy qadriyatlarga ongli munosabat shakllandi
- ijodiy faoliyat faollashdi

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalq qo'shiqlari bo'lajak musiqa o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Xalq qo'shiqlari talabalarda emotsional ta'sir orqali musiqiy tafakkurni rivojlantiradi va pedagogik faoliyatga qiziqishni oshiradi. Shuningdek, xalq qo'shiqlari orqali talabalarda milliy o'zlikni anglash kuchayadi, bu esa kasbiy identitetning muhim komponenti hisoblanadi. Ular musiqani nafaqat o'rganadi, balki uni pedagogik jarayonda qo'llash ko'nikmasini ham shakllantiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalq qo'shiqlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy va milliy qadriyatlarga sodiq pedagog sifatida tayyorlash imkonini beradi.

XULOSA

O'zbek xalq qo'shiqlari bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy-pedagogik identitetini shakllantirish va rivojlantirishda nafaqat muhim, balki tizim hosil qiluvchi pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Ular milliy musiqiy tafakkur, estetik idrok, badiiy did va ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan holda, talabalarining kasbiy shakllanish jarayoniga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, xalq qo'shiqlarining mazmunan boyligi, obrazlilik darajasi va tarbiyaviy salohiyati ularni musiqa ta'limida samarali didaktik vositaga aylantiradi. Xalq qo'shiqlari orqali talabalarda estetik tafakkur rivojlanadi. Chunki bu qo'shiqlar o'zida xalqning hayotiy tajribasi, ruhiy kechinmalari, orzu-umidlari va estetik qarashlarini ifodalaydi. Talaba ushbu qo'shiqlarni o'rganish jarayonida musiqiy obrazni anglash, uni tahlil qilish va estetik baholash ko'nikmalarini egallaydi. Natijada, uning musiqiy idroki chuqurlashadi, badiiy tafakkuri kengayadi va ijodiy yondashuvga moyilligi ortadi. Bundan tashqari, xalq qo'shiqlari bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiyani kuchaytiradi. Chunki ular orqali talaba o'z kasbining ijtimoiy-madaniy ahamiyatini chuqurroq anglaydi. Xalq qo'shiqlarini o'rgatish jarayoni o'qituvchini faqat bilim beruvchi emas, balki milliy madaniyat targ'ibotchisi va tarbiyachisi sifatida namoyon etadi. Bu esa o'z navbatida talabalarda pedagogik faoliyatga nisbatan mas'uliyat hissini, kasbga sadoqatni va ijodiy tashabbuskorlikni shakllantiradi. Shuningdek, xalq qo'shiqlari milliy qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ular orqali yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmat tuyg'usi shakllanadi. Ayniqsa, an'anaviy qo'shiqlarda aks etgan urf-odatlar, marosimlar va hayot falsafasi talabalarining ma'naviy dunyosini boyitadi. Bu esa bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyatida milliylik



va umuminsoniylik uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik identitetini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki bunda bilim, ko'nikma va qadriyatlar tizimli ravishda integratsiyalashadi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq qo'shiqlari musiqa ta'limida nafaqat o'quv material, balki kuchli pedagogik resurs sifatida qaralishi lozim. Ular orqali bo'lajak musiqa o'qituvchisida musiqiy-estetik tafakkur, kasbiy kompetensiya, milliy o'zlik va pedagogik mas'uliyat uyg'un holda shakllanadi. Shu bois, musiqa ta'limi tizimida xalq qo'shiqlaridan tizimli, maqsadli va ilmiy asoslangan holda foydalanish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmad Bahriyev. Musiqa pedagogikasi va psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
2. N.Muslimov. Pedagogik mahorat va innovatsiya. – Toshkent, 2016.
3. N.Muslimov. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2018.
4. Qobilova, E., Xaydarova, I., & gulnora, r. (2026). MUSIQA VOSITASIDA O'RTA SINF O'QUVCHILARINI MILLIY RUHDA TARBIVIALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. QDU xabarnomasi. ISSN:2181-1695
5. Qobilova, E. February 12. (2026). "MUSIC PEDAGOGY AND YOUTH EDUCATION" 2(1), The First Turkological Congress – A 100-Year Historic Event (1926–2026) 28-31. <https://www.wordlyknowledge.uz/index.php/congres/article/view/5302>
6. Qobilova, E. (2026). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA'LIMI JARAYONIDA MILLIY RUHNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELI <https://doi.org/10.5281/zenodo.18691754> 4(02), 44-49.
7. Qobilova, e. (2026). Globallashuv sharoitida musiqa ta'limi orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning ilmiy asoslari, innovative academy <https://doi.org/10.5281/zenodo.18691688>
8. Qobilova, E. (2026). MILLIY MUSIQA MEROSI ASOSIDA O'QUVCHILARDA MILLIY ONG VA MILLIY IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, innovative academy <https://doi.org/10.5281/zenodo.18691562>
9. Qobilova, E.(2026) MUSIQA VOSITASIDA YOSHLARNI MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI. "Nizomiy va Navoiyning adabiy merosi: badiiy timsol va inson falsafasi uyg'unligi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Onloay konferensiya.





10. Rasulova H. N. “Pedagogical opportunities of applying digital technology in music education” noyabr. (2025) <https://worldlyjournals.com/index.php/> 655-660 bet.

11. Rasulova Homidabonu Nu'monxon qizi “Musiqqa nazariyasini digital (content and language integrated learning) texnologiyasi orqali o'qitish: metodik yondashuvlar va amaliyot”(2025) 11-13

12. Rasulova Homidabonu Nu'monxon qizi.” Musiqqa nazariyasi o'qituvchilarini innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasiga tayyorlash”. (2026) 8-jild 2-son 13.02.2025 128-131.bet

13. Rasulova Homidabonu Nu'monxon qizi.(2024). “The concept of musical thinking and its content” volume. 7, issue 01, 216-219 bet.

14. Rasulova H.N.(2025) “Bolalar musiqqa va san'at maktablarida musiqqa savodxonligi (musiqqa nazariyasi) fanini rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari. Oak maqola “masters”109/ 111 bet.

15. Rasulova H.N. (2025). “Musiqqa darsining tuzulish shakli va usullari” xalqaro tezis “international scientific research conference” belarus, scientific-online conference.76-79 bet .

16. Rasulova H.N. (2024). “Musiqqa maktablarida musiqqa savodxonligi fanining ahamiyati” 18-20 bet <https://interonconf.org/index.php/ind/article/download/10824/9104/8903>

17. Rasulova H.N. (2024). Musiqqa maktablarida musiqqa nazariyasi darsining tarkibiy qismlari va ularning tuzilishi. Oak maqola pedagog respublika ilmiy jurnali 7 – tom 3 – son / 2024 - yil / 15 - aprel 50-53 bet.

18. Rasulova H.N. (2024). Musiqqa maktablarining dars jarayonida musiqqa savodxonligi faning nazariy asoslari. Pedagog respublika ilmiy jurnali 7 – tom 3 – son / 2024 - yil / 15 – aprel www.bestpublication.org 54-57 bet.

